

REALIYALAR: ASLIYAT VA TARJIMA

Madaminova Zarofat Shavkatjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi.

mirzamahmudovazarofatxon@gmail.com

Annotatsiya. *Har bir millat va xalqning o'ziga xos madaniyati, turmush tarzi, tarixi, urf-odati, qadriyatlari mavjud bo'lib, bu tushunchalar boshqa millatnikiga o'xshamaydi. Bular bir so'z bilan ilmiy tilda realiyalar deb ataladi. Realialar o'zida katta ma'no, xos xususiyat saqlaganligi bois, ular tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchilik tug'diradi. Sababi shuki, realiyalar faqat bir millatning madaniyatiga xos bo'ladi. Masalan, o'zbek millatiga xos bo'lgan "chopon", "Navro'z", "sumalak" kabi realiyalar boshqa millatlarda uchramaydi. Ushbu maqolada realiyalar tarjimasida qanday muammolar, qiyinchiliklar uchrashi haqida gap boradi. Shuningdek, bu muammolarni yechish uchun nazariyalar ham berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar. *Realia, tarjima, milliy so'zlar, millat, analogiya, transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, tasviriy tarjima.*

Tarjima bu matn yoki badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga shunchaki o'girish emas, balki u asar ruhiyati, millat ruhini ikkinchi tilga asl holicha ko'chirishdir. Tarjimon esa ikki til o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Badiiy asar ruhini to'laligicha kitobxonga yetkazish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchilik tug'diradigan narsa bu realiyalar hisoblanadi. Chunki realiya faqat bir millatga xos so'zni anglatib, uni boshqa millatlarda uchratmaymiz.

Realia so'zi lotincha "realia"dan olingan bo'lib, ashyoviy, haqiqiy degan ma'noni bildiradi. Realia bu ma'lum bir madaniyat, tarix, urf-odat yoki hayot tarzini ifodalovchi tushunchadir. Realialar bir millatning turmush tarzini, madaniyatini chuqur ifodalab keluvchi so'z bo'lganligi uchun ham tarjimonni qiynashi tabiiy hol.

"O'zbek millati, xalqiga xos hayotni ifodalovchi realialarning tarjimada rus tilida berilishi haqida so'z ketar ekan, shuni aytish kerakki, tarjimonlar ularni ifodalashda transliteratsiya usulidan foydalanishgan. Quyida Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" romanining o'zbek tilidan rus tiliga tarjimasidni tadqiq qilish orqali aniqlangan bir qator misollarni keltirib o'tamiz:

O'zbek madaniyatida chopon kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun kiyim [O'TIL 2008, 506] bo'lib, muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zbeklarning ko'pgina

marosimlarida, xususan, beshik to'yi, fotiha, aza marosimlarida choponning alohida vazifasi mavjud:

Bu qanday chopon? [Qodiriy 2004,47]. Unashtirilganidan bexabar Otabek aytgan ushbu gapning tarjimasini ko'ramiz:

Что это за халат? [Кадыри 2004,53].

Rus tilining izohli lug'atida халат so'zi quyidagicha berilgan:

Халат, -а, м. Домашняя или рабочая одежда, запахиивающася или застегивающася донизу [Ожедов, Шведова 1935, 985].

Yuqoridagi tarjimada choponning ustki kiyim ekanligi hamda shakli asos qilib olingan, biroq o'zbek milliy kiyimi o'zining mohiyatini yo'qotgan." [Kasimova 2021, 135]

Realialar bir qancha turlarga bo'linadi.

1. Tarixiy realialar. Ma'lum bir xalqning tarixiga tegishli voqea, jarayon kabi tushunchalarni ifodalovchi realialar. Masalan; ichki hovli, mirshab, eshikbon.

2. Madaniy realialar. Bir xalqning madaniyati, aslini ifodalovchi so'zlardir. Masalan; o'tov, palov, mahsi, kavush, salla.

3. Geografik realialar. Bir hudud yoki mintaqaga xos bo'lgan so'zlar. Ariq, marza, qadimiy yodgorliklar.

4. Urf-odatlar va an'analar. Bunda ko'proq millay bayramlar, bir xalqqa xos bo'lgan urf-odatlar kiradi. Masalan, Navro'z, Helloven, Ramazon va Qurbon hayiti.

Realia tarjimasida bir qancha tarjima usullaridan foydalanib tarjima qilish mumkin.

Transkriptsiya usuli. Bu tarjima usulida realiyani tarjima tiliga asliyatdagi talaffuziga yaqin qilib o'tkaziladi. Masalan; Utah- Yuta (AQSHdagi shtat), Chicago- Chikago (AQSHdagi shtat). Bu usul ko'proq joy nomlari va atoqli otlar uchun ishlatilindi. Ismlar ham shular jumlasidandir. Transkriptsiya usuli ham bir qancha ko'rinishlarga ega. Bulardan biri kalkalash, ya'ni asliyatdagi so'zning anglatgan ma'nosini aynan o'girishga asoslanadi. Masalan, skyscraper realiyasi (sky-osmon, scraper-tarashlash) o'zbek tiliga osmono'par deb yarim kalkalash orqali tarjima qilingan. Ingliz tilidagi -er ot yasovchi qo'shimchasini o'zbek tiliga -ist, -chi, deb tarjima qilinadi. Masalan, taxi driver – taksist, teacher- o'qituvchi. Yana bir turi o'zlashtirish bo'lib, bunda ingliz tilidagi va boshqa tillardagi ko'plab so'zlar o'zlashtirib olingan. Misol uchun, Evro, Rubl, poroxod, teploxod kabilar o'zbek tiliga o'zlashib ketgan. Ular bugungi kunda ham faol ishlatilini kelmoqda.

Translitteratsiya usuli. Bunda so'zning shaakli saqlanib qolgan holda o'giriladi. Misol uchun, Big Ben, London, Vestminster kabi. Analogiya – o'xshash ya'ni muqobil tushuncha bilan berish. Masalan; Oybekning "Navoiy" romanidagi "sholcha"- "palas" deb o'girilgan. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asaridagi "rojdestvo"- "yilboshi" deb tarjima qilingan.

Bunda soʻzlar “yaqin tarjima” qilingan boʻlsa-da, realiyaning xususiyati yoʻqolgan. Baribir oʻzidek tarjima qilish mushkul.

Yangi soʻz va soʻz birikmasi yaratish – baʼzi tarjimonlar realiyalarni maʼnosini tarjima qilib oladilar, ammo bu terminning yoʻqolishiga olib keladi. Misol uchun, “kotlet”ni “qiyma et” deb tarjima qilinganda, termin yoʻqoladi. Tasviriy tarjimada realiya oʻzi yozilib, qavs ichiga uning nimani anglatayotgani toʻliq tasviriy ravishda yoziladi. Bu tarjima usuli realiyaning toʻliq maʼnosini yetkazib bera oladi. Kontext maʼnosi soʻzning lugʻatdagi maʼnosida tubdan farq qiladi va ularni soʻzma-soʻz tarjima qilish imkoni yoʻq. Bunday vaziyatda tarjimaga qoʻl urgan tarjimon asliyat tilidagi realiyani qanday maʼno anglatayotganiga yaxshilab eʼtibor berishi va tarjima tiliga oʻgirishi lozim. Shunga qaramasdan, realiyalarni toʻliq adekvat usulda tarjima qilish imkonsiz boʻlishi mumkin. Bunday paytda esa asliyat tilidagi realiya transkripsiya yoki transliteratsiya usullaridan foydalanib tarjima qilinishi va izohlash, tasvirlash orqali maʼnosi yetkazilishi kerak. Shundagina tarjima muqobil boʻlishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Kasimova Z. Uzbekistan: Language and Culture. –T: Yashnobod nashr, 2021. 150b
- 2.Мусаев К. Таржима назарияси ва амалиёти. -Т: Фан нашриёти, 2005. -352б
- 3.Sodiqova S. Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasini Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati –Namangan, 2015. b-25b